



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/3 (12)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining
2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan
o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy
nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin
bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*
ZOXIDOV Azamat Azamjonovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*
ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – *psixologiya fanlari doktori.*
TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Сандова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*
Шоумаров Гайрат Бахрамович – *доктор психологических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*
Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*
Маъруфова Гулнора Махмудовна – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщин и гендерного равенства.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*
Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*
Сандов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*
Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*
Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*
Зохилов Азамат Азамjonovich – *доктор экономических наук, профессор.*
Зияев Азамат Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*
Абдусаматов Хасанбой Усмонjon угли – *доктор психологических наук.*
Туракулов Улугбек Холбутаевич – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Marufova Gulnora Makhmudovna – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*
Zokhidov Azamat Azamjonovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*
Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – *Doctor of Psychological Sciences.*
Torakulov Ulugbek Holbutayevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

MENEJMENT

Иноятова С.Р. Сравнительный анализ эффективности тренинговой программы по усовершенствованию профессионально-важных качеств у лидеров молодежи.....	4
--	---

SOTSILOGIYA

Butayeva X.Y. Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oilaviy bolalar uyi sharoitiga moslashtirishning sotsiologik xususiyatlari	10
Kadirova Z.A., Gaziyeva S.S. Intellectual migratsiyani tadqiq etishning konseptual asoslari	14
Norboyeva S.M. Talabalarda ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirishda gender tenglik va farqlarni hisobga olishning nazariy asoslari.....	21

OILA VA JAMIYAT

Xatamov B.Q. O'smirlar ijtimoiylashuvda virtual olam vositalaridan foydalanishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuv mezonlari	26
Rahimova M. Oilaga kelinning moslashish jarayonini psixologik jihatdan tadqiq etish	32
Sadullayev Sh. Ayollarda oila-ish balansini ko'rsatkichini shakllantirishning metodologik jihatlari	37

PSIXOLOGIYA

Султанова А.А. Стоит ли замалчивать о проблемах суицида в Узбекистане?	44
Ismaylova R. Oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar bilan ishlashda kognitiv xulq-atvor terapiyasi texnikalarining imkoniyatlari	51
Sharapova D.B. 'Housewife syndrome' as a psychological problem	57
Axmedova D.O. Migrantlarning yangi sharoitlarga ijtimoiy-psixologik moslashuvining nazariy tahlili	68
Nurbayeva X.U. Gender identifikatsiyaning etnomadaniy xususiyatlari	74

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Ochilova B.M. Ta'lim – gender tengligini ta'minlashda kuchli vosita.....	79
Djoldasova S. Ayollarning biznesdagi huquq va imkoniyatlarini kengaytiruvchi biznes modellar.....	88
Komilova X.T. Xotin-qizlarni ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyati mazmuni va tahlil.....	96
Suvankulov M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ichki ishlar organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga oid normalari tahlili.....	102
Nurdinova Sh. Migratsiyaning feminizatsiyalashuvi va uning iqtisodiy-ijtimoiy ta'siri	108
Nurmatova N.U. Vitagen ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish	115



Axmedova Dildora Olimjonovna,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti
e-mail: ahmedovadildora4@gmail.com

MIGRANTLARNING YANGI SHAROITLARGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVINING NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya. Globallashuv va aholining o'sib borayotgan harakatchanligi sharoitida migrantlarni yangi etnik-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Moslashuv jarayoni murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda madaniy, ijtimoiy va global omillar kesishadi. Ushbu maqolada ijtimoiy psixologiyani tushuntiruvchi asosiy nazariy yondashuvlar va modellar ko'rib chiqiladi.

Tayanch so'zlar: migratsiya, emigratsiya, etnik-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik muammo, kognitiv psixologiya, adaptatsiya, readaptatsiya.

Аннотация. В условиях глобализации и растущей мобильности населения вопрос адаптации мигрантов к новым этнокультурным и социально-экономическим условиям становится все более актуальным. Процесс адаптации – это сложный, многогранный процесс, в котором пересекаются культурные, социальные и глобальные факторы. В данной статье рассматриваются основные теоретические подходы и модели, объясняющие социальную психологию.

Ключевые слова: миграция, эмиграция, этнокультурная, социально-экономическая и психологическая проблема, когнитивная психология, адаптация, реадaptация.

Annotation. In the context of globalization and the growing mobility of the population, the issue of adapting migrants to new ethno-cultural and socio-economic conditions is becoming more and more urgent. The process of adaptation is a complex, multifaceted process in which cultural, social and global factors intersect. This article reviews the main theoretical approaches and models that explain social psychology.

Keywords: migration, emigration, ethno-cultural, socio-economic, psychological problem, cognitive psychology, adaptation, readaptation.

Kirish. Migrantlarning yangi etnik-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ijtimoiy-psixologik moslashuvi murakkab jarayon bo'lib, madaniyat, iqtisodiyot, psixologiya, sotsiologiya kabi turli omillarning o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy moslashuv bu shaxs yoki guruhning yangi muhit va yashash sharoitlariga mos keladigan

yangi jamiyatga qo'shilish yo'llarini topish jarayonidir. Migratsiya kontekstida bu jarayon yangi ijtimoiy normalar, qadriyatlar va amaliyotlarda ishtirok etishni o'z ichiga oladi.

Maqsad va uni asoslash. Migrantlarning moslashuv jarayonining asosiy nazariy jihatlaridan biri bu guruhlararo munosabatlar, ya'ni migrantlar va mahalliy aholi o'rtasidagi munosabatlar

tadqiqotchilarni o'ziga jalb qila boshladi. Xususan, rus psixologi N.M.Lebedevaning ta'kidlashicha¹, migratsiya jarayonidagi migratsiya va emigratsiya sabablari hamda motivlari; migrantlarning boshqa etnomadaniy muhitga adaptatsiyasi, boshqa tabiiy (geografik) muhitga adaptatsiyasi; migrantlarning turli avlodlari orasida etnik mansublikning transformatsiyasi kabi muammolarni o'rganishda psixologik muammolar yorqin namoyon bo'ladi.

Muayyan tarixiy davrlarda ommaviy xususiyatga ega bo'lgan odamlar migratsiyasi (ko'chishlari) jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarni aks ettiradi va uning farovonligi yoki nofarovonligining indikatori, ya'ni ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Insonlar yashash joyini o'zgartirishi, ya'ni migratsiya aksariyat hollarda o'zini olib qochishga o'xshash xulq-atvorning bir turi hisoblanadi. Qachonki insonning vaziyati, o'zi yashayotgan shart-sharoit (huquqlari, real voqelik)ni o'zgartirishga imkoni bo'lmaganda yoxud yangi obyektiv sharoitlarga moslashgan holda o'zi o'zgargan taqdirdagina migratsiya haqida qaror qabul qilinadi. Aksariyat hollarda migratsiya – bu yanada qulay yashash muhitini izlashdir (majburiy migratsiya bundan mustasno).

Alohida shaxs darajasida yoki guruh darajasida namoyon bo'ladigan muayyan fenomenlar (hodisalar, hatti-xarakatlar) kengroq ijtimoiy kontekstda, xususan, guruhlararo munosabatlar doirasida tushunilishi va izohlanishi mumkin. Etnik psixologlar adaptatsiya muammosini ko'pincha etnomadaniy adaptatsiya sifatida ta'riflaydilar, adaptatsiya subyektlari sifatida esa nafaqat alohida shaxslar, balki butun bir etnik guruhlar ishtirok etadi. “Madaniyatlararo adaptatsiya”, “etnomadaniy adaptatsiya”, “akkulturatsiya”, “psixologik akkulturatsiya” tushunchalari ham asosiy atamalar sanaladi. “Madaniyatlararo adaptatsiya – bu insonning yangi madaniy muhitga moslashishi jarayonidir. Bu jarayon inson va yangi madaniy muhit o'rtasidagi moslikka erishish jarayonini o'z ichiga oladi”². “Akkulturatsiya – bu turli madaniyatga ega guruhlar o'rtasidagi uzoq muddatli muloqot

natijasida madaniyat elementlarining o'zgarishi jarayonidir”³. Akkulturatsiya jarayonini o'rganish muammolari bilan Dj.Berri, R.Redfield, R.Linton, M.Xerskovis va boshqalar shug'ullanishgan.

Birinchi bo'lib migrantlar adaptatsiyasining ijtimoiy-psixologik muammolarini o'rganishga sotsiologlar, antropologlar, etnologlar hissa qo'shishgan. Masalan, V.Uayt Italiyalik emigrantlarning Amerikadagi adaptatsiyasi muammolarini, V.Tomas va F.Znanetskiylar Polshalik emigrantlarning Amerikadagi adaptatsiyasini o'rganishgan. Ularning tadqiqotlari natijasida jamiyatdagi ijtimoiy ustanovkalar (insonning dunyoqarashi, qadriyatlar, fikrlash tarzi va munosabatlari)ni o'rganish zarurligiga, ya'ni insonning yangi muhitga moslashish jarayoni uning oldingi ijtimoiy qarashlari va dunyoqarashlariga bog'liq, bu qarashlar yangi sharoitlarga moslashishni qiyinlashtirishi mumkin, degan qarorga kelishgan.

A.Farnxem, S.Bochner, K.Oberglar tomonidan kross-madaniy psixologiyada ruhiy larzani ifodalash uchun “madaniy shok” atamasi kiritilgan. K.Oberg ta'kidlaganidek, yangi madaniyatga qo'shilish do'stlarni, maqomni yo'qotish bilan bog'liq noxush tuyg'ular bilan birga kechadi. Madaniyatlararo tafovutlar anglanadi, jamiyatdan haydalganlik, vaziyat ustidan nazoratni yo'qotish, noqulaylik hissi, qadriyatlarga yo'nalganlikda, ijtimoiy va hatto shaxsiy mansublikda chalkashliklar paydo bo'ladi. J.Berri “madaniy shok” atamasi o'rniga “akkulturatsiya stressi” tushunchasidan foydalanishni taklif qildi. Valdivyaning ta'kidlashicha, yangi muhitda qolish (bo'lish) migrantlardan ortiqcha zo'riqishni yengishga imkon beradigan ulkan yengish manbalariga ega bo'lishni (yoki yaratishni) talab qiladi. Shuning uchun, shubhasiz, migrantlarning aksariyati yangi ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy sharoitlarga tushib, shok, stress, xavotirni boshdan kechiradi, bu organizm-muhit tizimidagi buzilishdan dalolat beradi, degan fikrga qo'shilish lozim. Bu adaptatsiya jarayonini yoxud G.Selening fikriga ko'ra “adaptatsiya sindromi”ni qo'zg'atadi. Stress yuzaga kelishining ko'p sabablari bor. Masalan, F.B.Berezin quyidagilarni asosiylari sifatida qayd etgan: 1) kognitiv tizimning yetarli darajada tuzilmaganligi; 2) muammoli vaziyatni yengish qobiliyatining yetishmasligi yoki yo'qligi

¹ Лебедева Н.М. Введение в этническую и кросс-культурную психологию: Учебное пособие. – Москва: Изд-во: “Ключ-С”, 1999.

² Стефаненко Т.Г. Этнопсихология: Учебник для вузов. 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Аспект Пресс, 2003.

³ Стефаненко Т.Г. Этнопсихология: Учебник для вузов. 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Аспект Пресс, 2003.

inson og'riqli holatdir⁴. Nevrotik reaksiyalar yuzaga keladi, ular ham vaziyat, ham shaxsiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin.

Asta-sekin adaptatsiyaning dinamik jihatlari, adaptatsion jarayonlarni belgilovchi mezonlar, strategiyalar va omillar migrantlarning yangi sharoitlarda adaptatsiyasi muammosi bo'yicha tadqiqotlarning mavzusiga aylandi. Hozirgi vaqtda migrantlarning yangi madaniyatga qo'shilishini yengillashtirish, yangi ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqa paytida qiyinchiliklarni yengish, stressni bartaraf etish maqsadida treninglardan foydalanish amaliy vazifasi ham dolzarb sanaladi.

I.Babiker, S.Bochner, A.Farnxem, S.Koxen, G.Noberman, T.G.Stefanenkolar o'z ishlarida ta'kidlashicha, migrantlarning mahalliy aholi bilan o'zaro munosabatlariga ko'plab omillar ta'sir qiladi, jumladan:

- migratsiyaning ixtiyoriy yoki majburiyligi: agar migratsiya shaxsiy xohish va iroda bilan amalga oshsa, bu migrantlarning yangi muhitga moslashishini yengillatishi mumkin. Agar migratsiya majburiy bo'lsa (masalan, urush yoki qashshoqlik sababli), bu jarayon murakkablashadi;

- ijtimoiy o'rganishlar va stereotiplar: mahalliy jamiyatdagi ijtimoiy o'rganishlar va stereotiplar migrantlarga nisbatan munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi;

- sharoitlar: sotsial-iqtisodiy, siyosiy shartlar, ishga joylashish imkoniyatlari migrantlarning yangi muhitga moslashadi;

- madaniy masofa: madaniy farqlar migrantlarning yangi muhitdagi moslashish jarayonini qiyinlashtiradi;

- maqsad va davomiylik: migrantlarning yangi muhitdagi maqsadlari (masalan, ta'lim olish, turizm yoki doimiy yashash) adaptatsiya jarayoniga ta'sir ko'rsatadi;

- qo'llab-quvvatlash: informatsion, instrumental va do'stlik yordami mo'ljallangan yordam migrantlarning yangi muhitga moslashishini osonlashtiradi;

- ishga joylashish imkoniyatlari: migrantlarning ishga joylashish imkoniyatlari ularning yangi muhitdagi ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatadi;

- hudud va guruhning o'lchami: migrantlarning joylashgan joyi va guruhning

o'lchami (masalan, kichik guruhlar yoki katta koloniyalar) ham muhim ahamiyatga ega;

- so'zlashuv tili, din, irq: til, din va irq kabi farqlar migrantlarning mahalliy aholi bilan o'zaro munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi;

- oilaviy holatlar: migrantlarning oilaviy holatlari ham yangi muhitga moslashishga ta'sir qiladi.

Bugun aksariyat tadqiqotchilar tomonidan adaptatsiyaning dinamik jihatlari, adaptatsion jarayonlarni belgilovchi mezonlar, strategiyalar va omillar, migrantlarning yangi sharoitlarga adaptatsiyasi muammosi tadqiqotlarning asosiy mavzusiga aylandi. Hozirgi vaqtda migrantlarning yangi madaniyatga qo'shilishini yengillashtirish, yangi ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqa paytida qiyinchiliklarni yengish, stressni bartaraf etish maqsadida treninglardan foydalanish amaliy vazifasi ham dolzarb tus oldi.

Y.Y.Budalina⁵, N.M.Lebedeva⁶, G.G.Pavloves⁷, V.Xarmslar⁸ tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda migrantlarning individual-shaxsiy xususiyatlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, psixologlar o'z metodikalariga migrantlarning individual-shaxsiy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bir qator so'rovnomalarni kiritishmoqda va ularning ijtimoiy-psixologik adaptatsiya bilan bog'liqligini aniqlashmoqda, ba'zi hollarda esa ularning ta'sirini o'rganishmoqda. Bunday xususiyatlar sifatida lokus nazorat, ijtimoiy yo'riqlar, vazminlik, ekstraversiya, intellektual, emotsional-irodaviy xususiyatlar, kommunikativ xususiyatlar, shaxslararo o'zaro aloqa xususiyatlari (ustunlik qilish, konformlik), faollik, qat'iyatlilik, ta'lim, madaniy daraja va boshqalar ishtirok etadi.

Jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlar munosabati bilan migrantlarning ijtimoiy-

⁵ Будалина Е.Е. Психологическая адаптация к иной социокультурной среде (на материале исследования удмуртского и коми-пермяцкого этносов). Дис.... канд. психол. наук. – Ижевск, 2004.

⁶ Лебедева Н.М. Новая русская диаспора: социально-психологический анализ. Издание второе, дополненное. – Москва: Изд-во Института этнологии и антропологии, 1995.

⁷ Павловец Г.Г. Социально-психологическая адаптация вынужденных мигрантов (по материалам Северного Кавказа). Дис. ... канд. психол. наук. – Санкт-Петербург, 2002.

⁸ Хармз В. Психологическая адаптация мигрантов (на материале исследования иракских эмигрантов в Швеции). – Санкт-Петербург: Речь, 2002.

⁴ Березин Ф.Б. Психическая и психофизиологическая адаптация человека. – Ленинград, 1988.

psixologik adaptatsiyasi tadqiqotlari turli obyektlarda olib borilgan. Bunda adaptatsiyani o'rganishga turli xil yondashuvlar qo'llangan, adaptatsiya muammosining o'zi ham turli jihatlar (ruhiy salomatlik, adaptiv qobiliyatlar, etnik o'z-o'zini anglash, mansublik va hokazo) bilan bog'liq holda o'rganilgan va bu ishning asosiy mavzusini belgilagan. Masalan, V.V.Gritsenko O'rta Osiyodan Rossiyaga chiqib ketgan ruslarning adaptatsiyasi⁹; N.S.Xrustaleva AQSh, Isroil, Germaniyada migrantlarning adaptatsiyasi¹⁰; N.B. Mixaylova Germaniyada migrantlarning adaptatsiyasini o'rgangan¹¹.

N.S.Xrustaleva o'z tadqiqotlari natijalariga asoslanib, "immigratsiya mamlakatining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yaxshi yoki yomonligidan qat'i nazar, ijtimoiy-psixologik adaptatsiya muammosi mavjud", degan xulosaga keladi¹². U "chet ellik kompleksi", "ijtimoiy o'lim sindromi" kabi psixologik fenomenlarni aniqlagan, ularning mazmuni adaptatsiya muammosining psixologik tomonini juda yaxshi namoyon etadi. Masalan, "chet ellik kompleksi" shaxsning barqaror ruhiy holatidan iborat bo'lib, u doimiy asab-ruhiy zo'riqish hamda to'liq psixologik himoyasizlik sharoitida yot lisoniy hamda ijtimoiy-madaniy muhit tomonidan shaxsning qadr-qimmatiga ma'naviy-psixologik zarar hamda organizmning yashovchanligiga jismoniy zarar yetkazilishi mumkinligidan qo'rquv hissi tufayli psixologik noqulaylik tuyg'usi bilan birga kechadi. "Ijtimoiy o'lim" fenomeni deganda, shaxsning shunday iqtisodiy, siyosiy va huquqiy holati tushuniladiki, u yot jamiyat sharoitida shaxsning ijtimoiy-kommunikatsion va kasbiy aloqalardan uzilgani tufayli ushbu shaxs uchun odatiy bo'lgan turli xil ijtimoiy rollarning beqarorlashuvi, tanazzulga uchrashi yoki barham topishiga olib keladi, xatti-harakat va barcha turdagi faoliyatlarning motivatsion darajasini keskin pasaytiradi, bu, o'z o'rnida, organizmning ruhiy

funksiyalarida involyutsion jarayonlarga olib kelishi mumkin¹³.

Adaptatsiya faqatgina shaxsning atrof-muhitga moslashishini nazarda tutmaydi. Adaptatsiya turlarini ajratishning asosi sifatida uning yo'nalganligi ishtirok etishi mumkin: Z.Freyd alloplastik (muhitning o'zgarishi) va autoplastik (shaxsiy o'zgarishlar) adaptatsiyani ajratgan. A.A.Rean ham faollik vektorining yo'nalganligini "adaptatsiya jarayonlarining turlarini ajratish mezonini" deb hisoblashni taklif qiladi. G.G.Pavloves¹⁴, adaptatsiya strategiyalarini ajratib, A.A.Reanning inson adaptatsiya jarayonida o'zini faol o'zgartirmasdan turib muhitning qadriyatlariga yo'nalganligini shunchaki sust qabul qilish mumkin emasligi haqidagi fikrlariga qo'shiladi¹⁵. N.N.Melnikova klassifikatsiyasi migrantlarning yangi muhitdagi adaptatsiyasini to'g'ri tushunish uchun muhim asoslarni belgilaydi. Bu klassifikatsiyada quyidagi uchta asosga e'tibor qaratilgan:

1. Aloqalilik – o'zini olib qochish (o'zaro aloqaning mavjudligi yoki yo'qligi): bu asos migrantlar va yangi muhit o'rtasidagi aloqalarni yoki kontakti o'rganishini nazarda tutadi. Migrantlar yangi muhit bilan aloqaga kirishish yoki undan qochish holatlari bo'lishi mumkin. Kontaktning bo'lishi yoki bo'lmasligi ularning moslashish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi.

2. Sodir bo'layotgan o'zgarishlarning yo'nalganligi, ya'ni muhit o'zgarsa, shaxsning o'zi o'zgaradi – bu asos o'zgarishlarning yo'nalishini belgilaydi. Moslashish jarayonida o'zgarishlar ikki tomonlama bo'lishi mumkin: muhit o'zgaradi yoki insonning o'zi o'zgaradi. Bu turdagi o'zgarishlar qandaydir ilovalar yoki salbiy ta'sirlarga olib kelishi mumkin.

3. Shaxsning faolligi yoki sustligi, ya'ni vaziyatni o'zgartirishga qaratilgan harakatlarning mavjudligi yoki yo'qligi – bu asosning doirasida insonning faol yoki passiv munosabatlari ko'rib chiqilishi. Moslashish jarayonida inson aktiv

⁹ Гриценко В.В. Социально-психологическая адаптация переселенцев в России. – Москва: Изд-во ИП РАН, 2002.

¹⁰ Хрусталева Н.С. Психология эмиграции (Социально-психологические и личностные проблемы). Дис. ... докт. психол. наук. – Санкт-Петербург, 1996.

¹¹ Михайлова Н.Б. Психологическое исследование ситуации эмиграции // Психологический журнал. 2000. Т. 21. № 1. – С. 26–38.

¹² Хрусталева Н.С. Психология эмиграции (Социально-психологические и личностные проблемы). Дис. ... докт. психол. наук. – Санкт-Петербург, 1996.

¹³ Хрусталева Н.С. Психология эмиграции (Социально-психологические и личностные проблемы). Дис. ... докт. психол. наук. – Санкт-Петербург, 1996.

¹⁴ Павловец Г.Г. Социально-психологическая адаптация вынужденных мигрантов (по материалам Северного Кавказа). Дис. ... канд. психол. наук. – Санкт-Петербург, 2002.

¹⁵ Реан А.А. К проблеме социальной адаптации личности // Вестник СПбУ. 1995. – № 3. Серия 6. – С. 74–79.

harakatlarni (masalan, yangi muhitga moslashish uchun harakat qilish) yoki passiv holatda bo'lishini (masalan, o'zgarishlarga qarshi turish) ko'rsatadi.

Individual xulq-atvorda strategiyalar birikmasi shaxsning adaptatsiya uslubini belgilaydi. Adaptiv xulq-atvor bu shaxsning yangi muhitga moslashish uchun ko'rsatadigan xatti-harakatlarini anglatadi. Adaptiv xulq-atvorlar bir necha muhim xususiyatlarga ega:

- kontakt: adaptatsiya jarayonida shaxs boshqalar bilan aloqaga kirishishi kerak. Bu o'zaro ta'sirsiz adaptatsiya samarali bo'lmaydi;
- o'zaro o'zgarishlar: adaptatsiya jarayonida faqat shaxs emas, balki u o'zaro ta'sirlashadigan obyektlar, ya'ni odamlar yoki muhit ham o'zgarishlardan o'tadi. Bu jarayonda har ikki taraf bir-biriga ta'sir qiladi va o'zgaradi;
- faol harakatlar: adaptatsiya faqat passiv qabul qilish emas, balki shaxsning faol harakatlari orqali amalga oshadi. Shaxs o'zini yangicha sharoitlarga moslashtirish uchun muayyan harakatlar qiladi¹⁶.

N.M.Lebedeva: "Adaptatsiya shaxslar va muhit o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikka olib kelishi yoki olib kelmasligi mumkin, u nafaqat moslashishni, balki qarshilikni, o'z muhitini o'zgartirish yoki o'zaro o'zgarishga bo'lgan urinishlarni o'z ichiga olishi mumkin", – deb yozadi¹⁷. Dj.Berri tomonidan ishlab chiqilgan akkulturationsiya nazariyasiga ko'ra, akkulturationsiya ikkita asosiy muammodan iborat bo'ladi: madaniyatni saqlash (madaniy mansublikni saqlashning ahamiyati qay darajada tan olinadi) va madaniyatlararo aloqalarda ishtirok etish (qay darajada boshqa madaniyatga qo'shilish yoki "o'zinikilar" orasida qolishi kerak). Dj.Berri akkulturationsiyaning to'rtta asosiy strategiyasini ajratgan: assimilyatsiya, separatsiya, marginallashtirish va integratsiya¹⁸. *Assimilyatsiya* deganda, migrantning yangi madaniyatga mansublashishi,

u mansub bo'lgan etnik ozchilikni inkor etish tushuniladi; *separatsiya* ko'pchilik madaniyatini inkor etish va o'z etnik xususiyatlarini saqlab qolishni nazarda tutadi; Dj. Berrining fikricha, etnik *marginallik* – o'zini ikkala madaniyatga ham mansub deb bilmaslik; *integratsiya* – o'zini ikkala madaniyatga mansub deb bilishdir. S.Bochner assimilyatsiya, segregatsiya, genotsid va integratsiya kabi migratsiya bilan birga kechadigan etnik jarayonlarning variantlarini tavsiflaydi.

F.B.Berezin fikriga ko'ra, assimilyatsiya strategiyasida mavjud bo'lgan atamaviy nomuvofiqlikka e'tibor qaratish lozim. Etnik psixologlar yakdillik bilan assimilyatsiya deganda, yangi madaniyatda "qorilib ketishni" tushunishadi. "Assimilyatsiya (etnografik) – bu bir millatning boshqasi bilan ulardan birining o'z tili, madaniyati va milliy o'ziga xosligini yo'qotgan holda qo'shilib ketishidir"¹⁹. Biroq psixologiyada boshqa bir nuqtayi nazar ham mavjud, bunda assimilyatsiya deganda, muhitga faol ta'sir qilish, uning shaxs tomonidan o'zgartirilishi tushuniladi. Atamalarda bunday nomuvofiqliklar ham adaptatsiya tadqiqotlarida muammo sanaladi.

Yakuniy qism. Ijtimoiy-psixologik adaptatsiya deganda, biz shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqaga kirishini tushunamiz, bu, o'z navbatida, undan xabardorlik, ushbu o'zaro aloqa davomida yuzaga keladigan muammolarni anglash va ularni hal qilish yo'llarini topish, o'zi (o'z qiziqishlari, ehtiyojlari, imkoniyatlari) va ijtimoiy muhit o'rtasida muvofiqlikka erishish maqsadida ushbu sharoitda unga eng adekvat (mos, to'g'ri keladigan) faoliyatni tanlashni nazarda tutadi. Eng muvaffaqiyatli adaptatsiya shaxsning ehtiyojlari va salohiyati u qo'shilgan ijtimoiy jamoalarning (kichik va katta ijtimoiy guruhlar) ehtiyojlari, atrof-dagi muhit sharoitlari bilan uyg'unlashganda sodir bo'ladi.

Ijtimoiy-psixologik adaptatsiyaning qiyinchiliklari yangi ijtimoiy sharoitlarga ko'chib o'tgan odam atrof-muhit bilan o'zaro aloqalarning avvalgi odatiy shakllarining yangi ijtimoiy muhitda zarur bo'lgan shakllarga to'g'ri kelmasligini payqashi mumkinligi bilan izohlanadi. Bunda, odatda, atrof-muhit notanish, farqlanmagan, tushunarsiz narsa sifatida qabul qilinadi. Insonning yangi sharoitlarga moslashishi uchun vaqt kerak bo'ladi.

¹⁶ Мельникова Н.Н. Процесс социально-психологической адаптации. Подходы к изучению // Теоретическая, экспериментальная и практическая психология. Сборник научных трудов / Под ред. Н.А. Батурина. – Челябинск: Изд-во ЮрУрГУ, 1998. Т. 1. – С. 31–49.

¹⁷ Лебедева Н.М. Введение в этническую и кросс-культурную психологию: Учебное пособие. – Москва: Изд-во "Ключ-С", 1999.

¹⁸ Berry J.W., Sam D.L. Acculturation and Adaptation // Handbook of cross-cultural psychology. Vol. 3. Social behavior and applications. Boston, 1997. pp. 291–326.

¹⁹ Березин Ф.Б. Психическая и психофизиологическая адаптация человека. – Ленинград, 1988.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 1. Лебедева Н.М. Введение в этническую и кросс-культурную психологию: Учебное пособие. – Москва: Изд-во “Ключ-С”, 1999.
2. 2. Стефаненко Т.Г. Этнопсихология: Учебник для вузов. 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Аспект Пресс, 2003.
3. 3. Березин Ф.Б. Психическая и психофизиологическая адаптация человека. – Ленинград, 1988.
4. 4. Будалина Е.Е. Психологическая адаптация к иной социокультурной среде (на материале исследования удмурдского и коми-пермяцкого этносов). Дис.... канд. психол. наук. – Ижевск, 2004.
5. 5. Лебедева Н.М. Новая русская диаспора: социально-психологический анализ. Издание второе, дополненное. – Москва: Изд-во Института этнологии и антропологии, 1995.
6. 6. Павловец Г.Г. Социально-психологическая адаптация вынужденных мигрантов (по материалам Северного Кавказа). Дис. ... канд. психол. наук. – Санкт-Петербург, 2002.
7. 7. Хармз В. Психологическая адаптация мигрантов (на материале исследования иракских эмигрантов в Швеции). – СПб.: Речь, 2002.
8. 8. Гриценко В.В. Социально-психологическая адаптация переселенцев в России. – Москва: Изд-во ИП РАН, 2002.
9. 9. Хрусталева Н.С. Психология эмиграции (Социально-психологические и личностные проблемы). Дис. ... докт. психол. наук. – Санкт-Петербург, 1996.
10. 10. Михайлова Н.Б. Психологическое исследование ситуации эмиграции // Психологический журнал. 2000. Т. 21. № 1. – С. 26–38.
11. 11. Реан А.А. К проблеме социальной адаптации личности // Вестник СПбУ. 1995. – № 3. Серия 6. – С. 74–79.
12. 12. Мельникова Н.Н. Процесс социально-психологической адаптации. Подходы к изучению // Теоретическая, экспериментальная и практическая психология. Сборник научных трудов / Под ред. Н.А. Батурина. – Челябинск: Изд-во ЮрУрГУ, 1998. Т. 1. – С. 31–49.
13. 13. Berry J.W., Sam D.L. Acculturation and Adaptation // Handbook of cross-cultural psychology. Vol. 3. Social behavior and applications. Boston, 1997. pp. 291–326.
14. 14. Березин Ф.Б. Психическая и психофизиологическая адаптация человека. – Ленинград, 1988.

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O’.,
Razzakova N., Sobirova E.,
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

